

OLTIN O‘RDA ADABIY MUHITI VA UNDA “MU‘IN UL-MURID” ASARINING O‘RNI

Zarnigor ABDUQODIROVA,
O‘zbekiston Milliy Universiteti doktoranti
zarnigorabduqodirova@gamil.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677063>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV asrda Xorazm diyorida, Oltin O‘rda adabiy muhitida yaratilgan “Mu‘in ul-murid” asari va uning mazmuni haqida so‘z boradi. Shuningdek, Oltin O‘rda adabiy muhitida yaratilgan asarlarning mazmun mundariyasi, mavzu jihatdan tasnifi, Oltin O‘rda adabiyotiga diniy-tasavvufiy asarlarning kirib kelish sabablari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Oltin O‘rda adabiyoti, Shayx Sharaf, “Mu‘in ul-murid” asari, diniy-didaktik asarlar, fiqh.

Аннотация. В статье рассматривается произведение “Муин уль-мурид”, созданное в Хорезме в XIV веке в литературной среде Золотой Орды, и его содержание. В статье также излагаются мысли о содержании, тематической классификации произведений, созданных в литературной среде Золотой Орды, а также о причинах проникновения религиозно-мистических произведений в литературу Золотой Орды.

Ключевые слова: литература Золотой Орды, Шейх Шараф, произведение “Муин ул-мурид”, религиозно-дидактические произведения, фикх.

Annotation. This article discusses the work “Mu‘in ul-murid” created in the 14th century in the land of Khorezm, in the literary environment of the Golden Horde, and its content. It also presents ideas about the content, thematic classification of works created in the literary environment of the Golden Horde, and the reasons for the introduction of religious and mystical works into the literature of the Golden Horde.

Key words: Golden Horde literature, Sheikh Sharaf, work “Mu‘in ul-murid”, religious and didactic works, jurisprudence.

Oltin O‘rda xonligi islom dinini qabul qilgach (Berkaxon hukmronligi davrida, XIII asr) [1. 151] islom dini arkonlarni o‘rganish zaruriy talabga aylandi. Shu sababli diniy mavzudagi asarlar yuzaga keldi. Bunda, albatta, hukmdorlarning ham o‘rni katta edi, ular yuksak salohiyatga ega bo‘lgan shaxslardan diniy mazmundagi asarlar yozishini so‘rashgan. Buning natijasi o‘laroq Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari (1309-1310, Nosiriddin To‘qbug‘a topshirig‘i bilan), Shayx Sharafning “Mu‘in ul-murid” asarlari yuzaga keldi. Bu davrda turk diyorida islom dini kengayishda davom etdi. XIII – XIV asrlarga kelib mehnatkash xalqning fikrini quruq va‘zxonlikdan ko‘ra diniy-afsonaviy voqealarga tortish kuchaya boshladi. Shu bois, Oltin O‘rda adabiyotida muayyan ma‘noda diniy asarlarning taraqqiy topishi tabiiy hodisa edi. Chunki, endigina islomiy davlat taomiliga kira boshlagan mamlakat uchun o‘z aholisini pokiza e‘tiqodga boshlovchi asarlar bilan ta‘minlanish zaruriy talablardan



biriga aylandi. Ma'lum syujet asosiga qurilgan turli-tuman naql-rivoyatlarni badiiy bayon etishga intilish nasriy asarlarning yuzaga kelishida muhim sabablardan biri bo'ldi. Dinni xalq orasida keng yoyish vazifasini badiiy asarlar bajarib berdi. Aynan shu davlatda turkiy adabiyotga va turkiy adabiy tilga e'tibor kuchaydi. Garchi bu davrdagi adabiyot – turkiy adabiyot, til – turkiy til deb yuritilsa ham, turkiy tilli xalqlar orasida alohida mavqe tutgan har bir o'zbek kitobxoniga Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan asarlar juda yaqin [2. 152]. Bu haqida professor Nasimxon Rahmonov Oltin O'rda adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini belgilar ekan quyidagi mulohazalarni o'quvchiga taqdim qiladi: Oltin O'rda adabiy muhiti shunisi bilan diqqatga sazovorki, birinchidan, Oltin O'rda davlatidagi madaniy-adabiy hayotning takomili natijasida o'zbek adabiyotiga yangi janr – noma janri kirib keldi. Xorazmiyning birinchi marta o'zbek tilida yaratilgan “Muhabbatnoma” (1353) asari buning dalilidir. Ikkinchidan, musulmon madaniyatini va islom dinini yoyish uchun o'zbek tilida birinchi marta payg'ambarlar tarixiga oid asarlar yaratildi. Nosiruddin Burxoniddin Rabg'uziyning “Qisasi Rabg'uziy” (710/1310-yil), Mahmud ibn Ali as-Saroyining “Nahjul-farodis” (“Jannatlarga ochiq yo'li”, 761/1361 yil) asarlari buning yorqin namunasi. Qisasi Rabg'uziy singari “Qisas ul-anbiyo”larning o'zbek tilidagi ko'plab nusxalari bugungi kunda Turkiya muzeylarida, kutubxonalarida saqlanmoqda. Bu asarlarning ko'p qismi Oltin O'rda davlati hukm surgan davrda yaratilgan. Mazkur “Qisas ul-anbiyo”larning aksariyati forschadan qilingan tarjimalardir. Turk olimi Ismat Jamilo'g'li “XIV asrga oid bir “Qisas ul-anbiyo” nusxasi ustida sintaktik tadqiqot” (Anqara, 1994) nomli asarida ana shu kitoblarning qo'lyozma nusxalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni bergan. Uchinchidan, Oltin O'rdadagi adabiy muhitning e'tiborga molik jihatlaridan yana biri tarjimachilikka alohida e'tibor berilganidir. Turli tillardan o'zbek tiliga nodir asarlarning tarjima qilinishi bevosita va bilvosita Chingizxon hamda uning farzandlari olib borgan siyosat, yerli aholiga bo'lgan ehtirom samarasidir. Chingiziy hukmdorlar farmonlarini turkiy tilda e'lon qilganlari, eski uyg'ur-turk yozuvi asosida mo'g'ul yozuvini yaratib, mo'g'ul davlatida yangicha madaniy taraqqiyotga asos solganlari buning yana bir dalilidir.

Oltin O'rdada XIII-XIV asrlarda yaratilgan asarlarni ikki guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

1) Diniy-didaktik asarlar: Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” (ayrim adabiyotlarda “Qisas ul-anbiyo” holida ham uchraydi) (1310), Mahmud inb Ali al-Bug'ariyning “Nahjul-Farodis” (“Jannatlarning ochiq eshiklari”) (1360, ba'zi manbalarda 1358), Shayx Sharaf Hojaning “Mu'in ul-murid” (1313), Hisom Kotibning “Jumjuma sulton” (1369), “Kesakbosh kitobi”;

2) Dunyoviy asarlar: Qutbning “Xusrav va Shirin” (1342), Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostonining turk tiliga tarjimasini, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” (1353), Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” (“Turkiy Guliston”, 1391) asarlari. XV-XVI asrlarda diniy ruhdagi hikoyat va rivoyatlarni badiiy jihatdan qayta ishlash keng tus oldi. “Mu’in ul-murid” asari ham aynan shu turdagi asarlarga yaqin bo‘lib, islom ma’rifiy adabiyotida muhim o‘rin tutadi.

“Mu’in ul-murid” XIV asrda Oltin O‘rda adabiy muhitida yaratilgan diniy-tasavvufiy ruhdagi asardir. Yuqoridagilardan ma’lumki, asar arab bo‘lmagan musulmonlar, aniqrog‘i turkmanlar (o‘g‘uz xalqi) uchun din arkonlari va fiqh masalalarini oson va tushunarli o‘rganishlari uchun zaruriy qo‘llanma o‘laroq yaratilgan. “Mu’in ul-murid” turkiylar uchun tushunarli tilda: qoraxonli turkchasining o‘g‘uz va qipchoq lahjalari qorishmasi natijasida vujudga kelgan xorazm turkchasida yozilgan. Bu asar XIV asrga tegishlidir. “Mu’in ul-murid” asarining oxirgi to‘rtligida asarning yozilish sanasi ko‘rsatilgan:

Idi berdi tavfiq bu birkach kalom
Oruch oyi ichra bitildi tamom
Tarix yetti yuz on uch erdi yili
Selamun aleykum, aleykum selam. [3. 151]

Ushbu to‘rtlik bizga shuni ma’lum qiladiki, asar hijriy 713-yili, milodiyda esa 1313-yil oxirlari va 1314-yil boshlarida ramazon oyida yozib tugallangan.

“Mu’in ul-murid” asari XIV asrda Xorazmda yashagan shayx, adib va fiqhshunos olim Shayx Sharaf tomonidan yozilgan. Ushbu adib haqidagi ma’lumotlar bizgacha deyarli yetib kelmagan. “Mu’in ul-murid” islom fiqhshunosligiga bag‘ishlangan asardir. Shuningdek, ushbu asardan tasavvufiy ruhdagi bo‘limlar ham o‘rin olgan. Umuman olganda, bu asar boshidan oxirigacha islomga bag‘ishlangan. Asarning asosiy mavzusi islom ekanligi har baytdan anglashiladi. Jumladan, ushbu asarning 402-to‘rtligida bu ochiq-oydin ko‘rinadi:

Bu kach so‘z ayitgan oti islam ol
Tilaki ahir vaqt iman islam ol
Otam bobo islam veliyyu’l-vera
O‘zi zikri tilda tuman aslam ol. [4. 151]

Ushbu asar orqali Oltin O‘rda aholisi din arkonlari, fiqhiy masalalarni o‘rganishgan. Shuningdek, bu asarda tilga olingan tasavvufiy mavzular orqali insonlar haqiqiy muridlar qonun-qoidalari, asoslari, komil inson tarbiyasi haqidagi qimmatli ma’lumotlarga ham ega bo‘lishgan.

“FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI”

respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov N. O‘zbek adabiy tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha). – T.: Sano-standart, 2017
2. Recep Toparli, Mustafa Argunshah. Mü’ini’l-mürid. Inceleme-Metin- Çeviri-Dizin- Tipkibasım. ANQARA, 2008. – 322 c

